

THE IMPORTANCE OF EARLY EDUCATION AND UPBRINGING IN CHILDREN'S LIVES

Turakulova Malokhat

Teacher of the department of pedagogy of Gulistan State Pedagogical institute

Annotation: *This article is devoted to the importance of education from an early age and the responsibilities and duties of parents in education. By early childhood education, we can see that a child is given regular education and upbringing by his parents from the day of his birth. Early education places the greatest responsibility on the mother. If a mother wants her child to become a well-educated person in the future, she should educate her child from the day of his birth. For this, a mother must prepare herself for motherhood, first.*

Motherhood means sleepless nights for years, motherhood means always being careful and can be an example. Motherhood is preparing geniuses for one's country, motherhood is being responsible.

Motherhood is a time when mothers can prove that they can be anyone: doctor, artist, seamstress, cook and even entrepreneur.

ERTA TA'LIM VA TARBIYANING BOLALAR HAYOTIDA AHAMIYATI

To'raqulova Malohat

GulDPI Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya: *Ushbu maqola erta yoshdan ta'lim tarbiyaning ahamiyati va tarbiyada ota-onaning ma'suliyati va vazifalariga bag'ishlanadi.*

Erta yoshdan ta'lim tarbiya deganda – bolalar tug'ulgan kundan boshlab ularga ota-onalari tomonidan muntazam ta'lim va tarbiya berib borilishini tushunishimiz mumkin. Erta ta'lim eng katta mas'uliyatni onaning zimmasiga yuklaydi. Agar ona kelajakda bolasidan yaxshi bilimli inson yetishib chiqishini istasa u bolasi tug'ulgan kundan boshlab uni tarbiyalab borishi kerak. Buning uchun u avvalo o'zini tarbiyalab onalikka tayyor bo'lmog'i lozim. Onalik bu-necha yillab uyqusiz tun-u kunlar, onalik bu-har doim kuzatuvda turish (o'rnak bo'la olish), onalik bu-o'z vataniga daholarni tayyorlash, onalik bu-ma'suliyat, onalik bu-mukofot, onalik bu-shifokor, o'qituvchi, rassom, tikuvchi, oshpaz, tadbirkor bo'ladigan davrdir.

Kalit so'zi: ta'lim-tarbiya, muhit, irsiyat, ko'nikma, malaka, qobiliyat, iqtidor, bilim.

Erta ta'lim tarbiya to'g'risida gap ketganda bu mavzu xususida olimlar, pedagog va psixologlarning qarashlari turlicha. Kimlardir chaqaloqlikdan tarbiya va ta'limni kerak emas desa, yana bir qator olimlar erta ta'lim va tarbiyani maqullaydilar. Xususan "Soniy" kompaniyasi asoschilaridan biri Yaponiyalik Masaru Ibuka ham erta rivojlanish masalasiga juda qiziqadi va "Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi" va "Iqtidorlilarni o'qitish" maktabini ham tashkil qiladi.

Shuningdek, pedagog-psixolog ko'p yillik izlanishlarga ega "Baqirmaydigan onalar", "Baqirmaydigan bolalar" asari muallifi Xadicha Kubro Tongar bolalarga yoshligidan e'tibor va mehr-muhabbat bilan tarbiya qilish kerakligini ko'p bora takidlaydi. Farzand onasi tomonidan xo'rlangan, kamsitilgan, ezilgan bo'lsa, bu bola ongiga kelgusida "Seni kuch bilan ezadigan hammaga bo'yin eg" degan fikrni singdirishi bilan xatarlidir"- degan edi.

Erta yoshdan ta'lim tarbiya deganda – bolalar tug'ulgan kunidan boshlab ularga ota-onalari tomonidan muntazam ta'lim va tarbiya berib borilishini tushunishimiz mumkin. Erta ta'lim tarbiyaga Islom dinida ham katta ahamiyat qaratilganligini biz tarixiy manbalarimizdan ham bilib olishimiz mumkin. Bola sof tabiat bilan tug'uladi, tarbiya natijasida u yaxshi yoki yomon xulqqa ega bo'ladi deyilgan. Abu Ali Ibn Sinoning fikricha ham bolaga tug'ulmasidan oldin yani ona qornidaligidayoq ta'lim-tarbiya berib borish shartligini aytgan. Ushbu fikr bir qancha tajribalarda o'z tasdig'ini topgan. Masalan, ona xomiladorlik davrida kitoblarni ko'p o'qisa, yaxshi musiqalarni tinglasa tug'ulajak farzandi ham kelajakda albatta yaxshi xulqli, ilmi bo'lganligiga ko'plab misollar bor. Shu o'rinda Murat Tosunning "Olim yetishtirgan onalar" asarida Imom Al-Buxoriyning ham olim bo'lib yetishishida onasining roli nihoyatda beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Imom Al-Buxoriy 11 yoshligidayoq xadislarni yoddan ayta olgan. Shuningdek Imom Al-Buxoriyning onasi eng duogo'y ona maqomini olgan. Onasining to'g'ri tarbiyasi Buxoriyning ilm ahlidan qildi. Shu o'rinda "Tomas Edison va uning qahramon onasi" haqidagi hikoyani bilmagan kishi bo'lmasa kerak. Uni o'qituvchilari aqli noqis deyishsa ham tadbirkor, dono onasi uni daxo qilib tarbiyalagan. Demak, bundan ko'rinib turibdiki bolani tarbiyalash ona zimmasidagi eng muhim vazifadir.

Shu o'rinda bir savol tug'ulishi tabbiy bolaga ona qornidaligidayoq ta'lim tarbiya bera olsak unda nimaga biz bolani yetti yoshga to'lishini kutib

o'tirishimiz kerak ekan. Erta ta'lim berish azaldan bizni diyorimizda mavjud bo'lgan. Masalan: Besh yoshida Fariddin Attorning "Lison ut-tayr" asarini yod olgan xayoti davomida besh yuzdan ortiq asarlar yozgan she'riyat mulking sultoni bo'lmish Mir Alisher Navoiyni barchamiz bilamiz. Demak bekorga aytilgan emas ekanda yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir deb. Bolalar umri davomida oladigan ma'lumotlarning 70% ini besh yoshgacha o'rgansa, demak biz ikki va undan ko'p tilni o'rganishni maktabga borganida o'rganishiga qoldirishimiz kerak emas.

Shu joyida fikrimizni isboti bilan keltirib o'tsak "Uchdan keyin kech" asari muallifi Masaru Ibuka tadqiqotlari kuzatishicha "Tillar bo'yicha daho sanalmish aka va singil ingiliz, ispan, italyan, nemis, fransus kabi besh tilni bilishi bilan birga yapon tilini ham bilar edilar. Maqola Masao Nagata haqida edi. U o'qituvchilik kasbini tashlab o'zini uy begi deb e'lon qiladi va o'z hayotini farzandlari tarbiyasiga bag'ishlaydi. Shu paytlar uning o'g'li ikki yarim yoshda qizi esa uch oylik edi. Ko'plab kuzatuvchilar Nagatani tanqid qilishdi beshta tilni bir vaqtda o'rgatish bolani tajang, urushqoq qilib qo'yadi yani buncha ma'lumot bolaga og'irlik qiladi dedilar. Lekin Nagataning fikricha bu tillarni o'rganishda bolalarda hech qanday qiyinchiliklar bo'lmaganini aytadi. Biz tillarni radio orqali o'rgandik radioda har kuni bir vaqtda fillarga doir ko'rsatuvlarni ko'rish va takrorlash orqali o'rgandik degan edi.

Bola miyasi shimgich, barcha ma'lumotlarni tezlikda shimib oladi. Bola uchun qiyin ma'lumot ham osoni ham birdek qabul qilinadi. [1-41].

Faqat biz ularni dangasa qilmasdan bola xohlaganlarini bera olsak bola miyasi katta odam miyasidan tezroq o'sha ma'lumotlarni qabul qiladi va kattalardan ko'ra buni juda osonlik bilan qiladi. Bunga misol sifatida kompyuter, telefonni bir yoshga xali kirib kirmagan bolakaylar yoshi katta kishilarga qaraganda buni yaxshiroq ishlatishini olishimiz mumkin. Shuni ham eslatib o'tishimiz shartki erta ta'lim tarbiyani daxoni yetishtirish uchun emas, shunchaki bolangizni vaqtini mazmunli va sifatli o'tkazish uchun, kelajakda bilimlari yuzaki bo'lib qolmasligi uchun qilsak yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Erta ta'lim eng katta mas'uliyatni onaning zimmasiga yuklaydi. Agar ona kelajakda bolasidan yaxshi bilimli inson yetishib chiqishini istasa u bolasi tug'ulgan kundan boshlab uni tarbiyalab borishi kerak. Buning uchun u avvalo o'zini tarbiyalab onalikka tayyor bo'lmog'i lozim. Onalik bu-necha yillab uyqusiz tun-u kunlar, onalik bu-har doim kuzatuvda turish (o'rnak bo'la olish), onalik bu-o'z vataniga daholarni tayyorlash, onalik bu-ma'suliyat, onalik bu-mukofot, onalik bu-shifokor, o'qituvchi, rassom, tikuvchi, oshpaz,

tadbirkor bo'ladigan davrdir. Ona bolaning kelajagini kelajakda qanday inson bo'lishini o'zi bilib bilmay belgilab qo'yadigan insondir. Yani u bergan to'g'ri ta'lim va tarbiya bolani butun umr hayotda o'z o'rnini topishda, jamiyatda o'ziga xos mavqega ega bo'lishida asqotadi.

Bola hayotining qanday bo'lishi, qanday kechishi bejiz onalarga bog'liq demadik. Ahmad Donish Qozonchining "O'gay ona" asarini o'qib qoldim. Ushbu asarda onasiz xor-zor bo'lgan bolalar va o'gay ona bo'lsa ham onalik mehrini, onalik ta'lim tarbiyasini bera olgan olima dono ayol Fotima xonimning bolalar hayotini to'g'ri tashkil qilganligi besh yoshidan boshlab ularga kitoblar o'qib berganligi orqali ularni kitobga mehrini uyg'otganligini va natijada olim o'g'ilni tarbiya qilganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'nikmalar erta yoshdan o'zlashtirilmasa keyin egallash mushkul bo'ladi. Bunga misol sifatida estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, aqliy va barcha tarbiya turlarini olishimiz mumkin.

Gimnastika mashg'ulotlariga qizaloqlarimiz to'rt-besh yoshdan olinadi. Ular qancha erta borsa kechroq shug'ullana boshlagan qizlardan oldinlab ketadi va bilimlarni osonlikcha o'zlashtira oladi va qiyinchiliklarsiz bajaradigan bo'ladi. Shuningdek, bu ko'nikmalarni hosil bo'lishini barcha tarbiya turlarida ko'rishimiz mumkin. Bola qancha erta musiqa bilan, raqs bilan tanishtirilsa natijasi yaxshi ko'zga tashlanadi. Ta'lim tarbiya eng muhimi muhit, irsiyat bolaning qanday inson bo'lishini belgilaydi degan edi G'arb olimlari bu bo'yicha bir qancha nazaryalar ishlab chiqildi. Lekin bizni dinimizda, ota-bobolarimiz o'gitlarida ham ta'lim va tarbiya yetakchi omil qilib ko'rsatib o'tilgan. Bunga misol sifatida bir oilada tug'ulgan ikki egizak bolalarning boshqa-boshqa oilada tarbiyalanganida tarbiya natijasida bir yaxshi inson ikkinchisi esa uning aksi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yana yuqorida eslatib o'tgan "O'gay ona" asaridagi Fotima xonim bolalar o'z zuriyoti bo'lmasa ham tarbiya orqali uni yaxshi xulqli, yaxshi insonlar etib tarbiyalanganligini ham keltirishimiz mumkin. Bunga tevarak atrofga nazar tashlasak yana qanchadan-qancha misollarni ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyaning o'rni juda muhim va juda kerak jarayondir. Ta'lim-tarbiya to'g'ri tashkil qilinmasa nasl nasabi zo'r bo'lgan muhit zo'r bo'lgan oiladan ham hulqi og'ishgan farzand ulg'ayishi mumkin. Biz o'qituvchilarning vazifamiz ta'lim-tarbiyani barcha bolalarga birdek berishdir. Xali erta deyish bolaning o'sishiga xalaqit beradi.

Amerikalik psixolog Makgron egizaklar bilan tajribalar o'tkazdi. Ularning biri o'n bir oylik, ikkinchisi yigirma ikki oylik bo'lganida konkida uchishni o'rgatdi. Natijalar turlicha bo'ldi. Ertaroq o'rgatilgan bola ancha yaxshiroq

natijalarga erishdi. Buni qarangki endi yurishni o'rgangan bolalar ham hattoki bemalol konkida uchishi mumkin ekan. [1.66]

Demak erta yoshdan ta'lim- tarbiya berish uchun onalar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar quyidagilardir.

- Kun tartibi tuzish, kun tartigiga muntazam amal qilish;
- Gigiyena qoidalariga amal qilish;
- Sog'lom ovqatlantirish ratsioniniga amal qilib bolani ozuqlantirish;
- Jismoniy, aqliy, nafasat, mehnat tarbiyalari bilan bolani tanishtirib borish;
- Kichik yoshdan boshlab bolaning qiziqishini aniqlab ushbu mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun vaqt ajratish;
- Vaqtini samarali o'tkazishiga e'tibor berish, mehr berish;
- Faoliyatning xar uchala turi (o'yin, o'qish, mehnat) bilan bolani o'z vaqtida shug'ullantirishga ahamiyat qaratish kerak;
- Sayrga olib chiqish, teatrga, muzeylarga ota-ona bilan birgalikda boorish;

Onaning quchog'i bola uchun eng xavfsiz va eng issiq joydir. Bekorga davlatimiz qonunchiligida ham bog'cha yoshi uch yosh etib belgilab qo'yilmagan. Shu yoshgacha bola o'z onasining quchog'ida ulg'aysa u albatta o'ziga ishongan, mehribon, barcha bilan oson do'stlashib ketadigan kirishuvchan bo'lib ulg'ayadi. Agar ona har kuni bolasi peshonasidan o'pib qo'yadigan bo'lsa bolada baxt garmoni faolroq ishlab chiqarilar ekan. Shuningdek, fan ta'lim o'tkazgan tajribalardan aniqlanishicha bolalardagi turli kasalliklarga yagona dori-darmonsiz davo bu ona mehri ekanligini ham aytishimiz lozim. O'yin bolalar hayotida muhim faoliyat vositalaridan biridir. O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g'oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o'zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar.

A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birma-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. "Yaxshi o'yin faoliyati-yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi" deydi A.S.Makarenko. Mana shuning uchun bolalar o'yin faoliyatida o'zlarini qanday namoyon etsalar, katta bo'lganlaridan so'ng mehnat faoliyatlarida ham ko'p jihatdan o'zlarini shunday namoyon etadilar. Chet el psixologlaridan J.Piaje va Koffkaning fikricha, bolalar go'yoki bir-biridan ajratilgan ikki xil dunyoda, yani xayolla, afsonalar dunyosida real voqeiy dunyoda yashaydilar. O'yinchoqning bola psixik taraqqiyotida ta'sirini o'rganish ishlariga XIX asrga kelib jiddiy e'tibor

berila boshlandi. Bu yo'nalishdagi birinchi tadqiqot ishlari nemis pedagogi Frebel tomonidan ilmiy ravishda o'rganila boshlandi. Frebel o'z tadqiqotlarida bolaning dunyoga kelgan birinchi kunligidayoq bilish jarayonlarini rivojlantirish zarurligini, bolaning birinchi o'yinchoqlari yumshoq o'yinchoqlar bo'lishi kerakligini aytadi. [2.305]

Ushbu ma'lumotni bejizga keltirmadik. O'yin faoliyati bolani eng zo'r rivojlantiruvchi vositadir. O'yin orqali ta'lim tarbiyaviy faoliyat olib borilsa bu faoliyatni o'zlashtirish bola uchun ham foydali ham zavqli bo'ladi.

Erta yoshdan ta'lim tarbiya vositalari:

- Yoshiga mos multfilmlar, eraklar, video roliklar (axborot texnologiyalari);
- Kitob, jurnal, o'quv qurollari;
- Sport asboblari (koptok, shaxmat, shashka, tennis) v.h;
- O'yinchoqlar, hayotiy o'yinchoqlar, ijodiy fikrlashga, fantaziyani rivojlantirishga qaratilgan o'yinchoqlar, boladagi agressiya g'azabni chiqarib yuborishga yordam beruvchi o'yinchoqlar;
- Nodir san'at asarlari suratlarini chiqarib uyining ko'rinadigan joylariga osib chiqish vaqti vaqti bilan bularni almashtirish;
- Mehnat qurollaridan bola uchun alohida sotib olish (qizlar uchun kichik xajmli supurgi v.h o'g'il bolalar uchun belkurak kichik xajmlisini o'zi uchun yasab berish);
- Tengdoshlari bilan birga mashg'ulotlarda qatnashish ushbu vositalardan to'g'ri foydalanish orqali bolaga o'z vaqtida va to'g'ri tarbiya berishimiz mumkin.

Shuni unutmasligimiz kerakki tarbiya- bu go'daklikda o'rganilgan hayot tarzi usulidir. Go'daklikda tarbiyaga beparvolik qilinsa, kelgusida tarbiyadagi kamchilikni to'g'rilab bo'lmaydi. Shuni ham eslatib o'tishimiz kerakki bolaga tarbiya berish bilan birga unga also ortiqcha g'amxo'rlik qilmaslik kerak, chunki ortiqcha g'amxo'rlik bolani ojiz qilib qo'yadi. Qalbi bir- biriga yaqin bo'lgan insonlar baqirib gaplashmaydi, nigohlari bilan bir-birini tushunishadi. Mana shu nuqtada onalik-san'at deyiladigan jihat bolani "so'z" emas, "ko'z"ga quloq soldirishdir degan so'zlar bilan yakunlaymiz. [3.157]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Masaru Ibuka "Uchdan keyin kech"-Toshkent: Akademnashr, 2022.
2. Jalilova S.X."Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" -Toshkent: "Faylasuf" nashriyoti-2017
3. Xadicha Kubro Tongar "Baqirmaydigan onalar"- Toshkent: "Yangi asr avlodi"-2022.

4. Murat Tosun "Olim yetishtirgan onalar" -Toshkent: "FACTOR PRESS" - 2021.
5. Ahmad Lutfi Qozonchi "O'gay ona" -Toshkent: "Global book"-2020